

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILINI DUNYO MIQYOSIDA KENG
TARG‘IB QILISH BO‘YICHA HAMKORLIK
ISTIQBOLLARI»
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

2020-yil 19-20-oktabr

TOSHKENT - 2020

My	Mein	Мой	Ман
Two	zwei	Два	Ду
Three	Drei	Три	Се
Five	Fünf	Пять	Панч
Six	sechs	Шесть	Шаш

Мы сравнивали и разобрали сходства этих древних языков друг с другом морфологически, лексически и фонетически. На примере нескольких предложений привели факты с родственными языками и установили связь между ними. Нужно учитывать того факта, что в каждом сходстве есть отличие. По диаграмме Венна учитывая сходства, также нужно определить отличия в этих родственных языках.

В настоящее время английский, немецкий, русский и таджикский языки имеют некоторые грамматические отличия. Например, в русском языке местоимение *мой* имеет четыре формы: *мой-моя-мое-мои*, также и по-немецки: *mein-meine*. Но в английском и таджикском языках существует только одна форма *ту* (английский язык), *ман* (таджикский язык). В русском и немецком языках имя существительное склоняется по числам и падежам, а глагол спрягается. А в английском и таджикском языках окончания слов в предложениях не изменяются, так как эти языки не имеют рода (мужской, женский, средний) как в предыдущих языках. Но в таджикском языке глагол спрягается так как в русском и немецком языках, хотя не имеет рода. А в английском глагол спрягается только в третьем лице единственного числа.

Русский язык	Английский язык	Таджикский язык	Немецкий язык
<i>Я люблю жизнь. Ты любишь жизнь. Он любит жизнь. Она любит жизнь. Мы любим жизнь. Вы любите жизнь. Они любят жизнь.</i>	<i>I love life. You love life. He loves life. She loves life. We love life. You love life. They love life.</i>	<i>Ман ҳаётро дӯст медорам. Шумо ҳаётро дӯст медоред. Вай ҳаётро дӯст медорад. Мо ҳаётро дӯст медорем. Шумо ҳаётро дӯст медоред. Онҳо ҳаётро дӯст медоранд.</i>	<i>Ich liebe das leben Du liebst das Leben. Er liebt das Leben. Sie liebt das Leben. Wir lieben das Leben. Du liebst das Leben. Sie lieben das Leben.</i>

По диаграмме Венна анализировали четырех языков, таких как английский, немецкий, русский и таджикский языки из индоевропейской языковой семьи. Они имеют несколько сходств и отличий друг от друга, которые были классифицированы с примерами.

Список использованной литературы:

1. <http://nitforyou.com/venn/>
2. <https://studfiles.net/preview/3052850/page:13/>
3. Ожегов С. И. Толковый словарь русского языка. - Москва, 2007.
4. Дешериев Ю.Д. Закономерности развития и взаимодействия языков. – М., 1986.

O‘zbek tilining maktab o‘quv lug‘atlarida til va madaniyat yaxlitligi talqini masalasi
The issue of interpretation of the integrity of language and culture in school textbooks of
the Uzbek language

Annotation. *The article talks about the role of dictionaries for schoolchildren, the role of these dictionaries. In school textbooks, the emphasis is on the educational purpose of the lesson. The size of the textbook does not cover all the materials related to the implementation of the educational objectives of the lesson. This problem can be solved with the help of dictionaries, which are aimed at achieving both educational and pedagogical purposes.*

Key words. *Textbook, national language, national culture, textbook, grammar dictionary, semantics, work, author*

Modomiki, til shu til sohiblarining milliy madaniyati ko'zrusi, insoniyatning o'z tarixi, madaniyati, e'tiqodi va boshqa muhim qirralarini yuzaga chiqarish, milliy o'zligini ko'rsatish vositasi ekan, uni, xususan, ona tilini o'qitish o'quvchining shu til sohibi bo'lgan xalq madaniyati, ma'naviyatiga daxldor boy tajribani o'zlashtirishi bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi lozim. Maktab darsliklarida asosiy e'tibor darsning ta'limiy maqsadini amalga oshirishga qaratiladi. Darslik hajmi darsdan ko'zlangan tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga doir barcha materiallarni qamrab olishga imkon bermaydi. Bu muammoni ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan o'quv lug'atlari yordamida hal qilish mumkin.

Mutaxassislar har qanday milliy tilning milliy madaniyat va jamiyat taraqqiyotining mahsuli ekan hamda til taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlar milliy madaniyatga, olamning milliy tasviri va etnik xoslangan shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi nazariy lingvokulturologiyaning asosiy mezonlaridan ekanini ta'kidlaydilar. [Воробьев, 2016:355-360; Литкулова, 2016:109-114]

O'quv lug'atlarining antroposentrik xarakteri bu toifaga mansub lug'atlarni yaratishda milliy madaniyatdagi asosiy tushunchalar, madaniy kontseptlarning lug'atda aks etishi bilan bog'liq jihatlarga e'tiborni qaratishni taqozo qiladi. O'quv lug'atida til va madaniyatmushtarakligining aks etishi madaniy kontseptlarning lug'atdagi ifodasi bilan bog'liq.

Kontsept – o'zida so'z semantikasining lingvistik va entsiklopedik aspektlarini yaxlit jamlagan lingvomadaniy birlik; u mental leksikon, miyaning kontseptual tizimi va tili, dunyoning inson psixikasida aks etgan tasviri kabi operativ xotira birligi. [Кубрякова, 1997:58]

To'g'ri, o'quv lug'ati, avvalo, o'z oldiga ta'limiy maqsadni qo'yadi. Ushbu etakchi funksiyasi uning o'ziga xos mezonlarini aks ettiradi va lug'at turini belgilashda ustunlik qiladi. Biroq o'quv lug'ati – lingvodidaktik vosita. Unda ta'limiy – o'quv maqsadi bilan birga tarbiyaviy maqsad va yana bir necha funksiyalar bir-biri bilan kesishadi. Leksikograflarning ta'kidlashicha, zamonaviy lug'atlarning o'ziga xos xususiyati ularning ko'p qirrali, ko'p funksiyali ekanligidir. O'quv lug'atlarining ilk namunalari kompleks xarakterga ega bo'lib, bir paytda ham entsiklopedik, ham izohli, ham me'yoriy, ham grammatik lug'at edi. Jumladan, jahon o'quv lug'atchiligining antik namunalari – Qadimgi Messopotamiya, Misr, Yunoniston kabi ilk sivilizatsiya o'choqlarida miloddan oldingi XXV asrda yaratilgan shumer glossariylari, uch tilli shumer-akkad-xett ma'lumotnomalari (er.av.XIV–XIII), Nippurdagi ibodatxona kutubxonasidan topilgan lug'at ko'rinishidagi maktab grammatikalari (er.av. X–VIII asr), Gomer va boshqa antik yozuvchilarning asarlari asosida yaratilgan glossariylar, Vizantiyalik Aristofan (er.av. III – II asrlar) va Dionisiy Frakiyskiylarning (II asr) lug'at xarakteridagi maktab grammatikalari, Kvintilianning nutq madaniyatiga doir antik o'quv qo'llanmalari (milodning I asrlari), Polluksning mashhur "Onomastikon"i (II asrning oxiri III asr boshlari), Evropa mamlakatlari, shuningdek, Rossiya, Sharq mamlakatlarida milodning o'rta asrlarida yaratilgan

* Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

leksikografik manbalar, ilk turkiy lug‘at namunalarining aksariyati ko‘pqirrali, kompleks lug‘atlar edi [Bahridinova,2020:212]. XIII-XIV asrlarda tillararo va madaniyatlararo aloqani ta‘minlash ehtiyoji ko‘plab arabcha-turkcha, turkcha-arabcha, turkcha-forscha tarjima lug‘atlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, muallifi noma‘lum “Kitabi majmu-u-tarjimon turkiy va ajamiy va mo‘g‘oliy”, Abu Hayyonning “Kitob-ul-idrak li-lison-al-atrok”, Jamoliddin ibn Muxannaning “Xiliat-ul inson va xalibat-ul lison”, Jamoliddin at-Turkiyning “Kitabu bulg‘at-al mushtaq fil lug‘ati at turk va qifchoq”, “Kitobu-at tuhfatu-uz zakiyatu fil lug‘ati at turkiya” kabi lug‘at-grammatikalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning dorivor o‘simliklar, hayvonlar va ma‘danlar tavsifiga bag‘ishlangan “Saydana” asarini bir vaqtning o‘zida ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik – kompleks o‘quv lug‘atining ilk namunasi deb qarasa bo‘ladi.

“Saydana”ning kirish qismida muallif yoshlik yillarida *o‘zini qurshab turgan olam va olam uzvlarining turli tillarda qanday nomlanishini bilish* istagi unga tinchlik bermagani, bolaligida uning yurtiga bir yunon ko‘chib kelgani, Abu Rayhon unga don, urug‘, meva, o‘simlik va boshqa narsalar ko‘tarib kelib, bular yunon tilida qanday nomlanishini so‘ragani va yunoncha nomlarni daftariga yozib olgani xususida bayon qiladi.

Muallif asarda ma‘lum dorivor moddaning bir necha tillardagi nomlarini keltirish bilan birga, har qaysi tildagi mahalliy nomlarini ham keltiradi. Bir o‘simlik yoki modda bir tilning turli shevalarida turlicha nomlanishi yoki aksincha, bir nom turli shevalarda turli o‘simlik nomini bildirishi mumkinligi, bu esa dorivor moddalardan amalda foydalanishni qiyinlashtirishini ta‘kidlaydi, foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun modda nomining dialektal variantlarini ham keltiradi.

Beruniy nomning jamiyat hayotidagi ahamiyati katta ekani, bu insonning ma‘naviy boyligiga emas, balki katta moddiy boyligi ham ekani, shu bois til o‘rganishning tengsiz amaliy ahamiyati mavjudligini ta‘kidlaydi. O‘z fikrini isbotlash uchun asarning V bobida shunday rivoyat keltiradi: “Xorazm amirlaridan biri kasal bo‘lib uzoq qiynaladi. Nihoyat nishopurlik bir tabib uning kasaliga nima davo bo‘lishi mumkinligi haqida dorinoma (resept) yozib yuboradi. Bu dorinomani mahalliy dorishunoslarga ko‘rsatadilar. Ular tavsiya etilgan bu dorivor o‘simlikni hech aniqlay olmaydilar. Shunda bir kishi ular qidirayotgan dorivor o‘simlikni topib berishi mumkinligini, lekin narxi besh yuz dirxam sof kumushdan kam bo‘lmasligini aytadi. Amir mulozimlari rozi bo‘lishadi. U kishi mulozimlarga o‘simlik tomirini tutqazadi. Bu o‘simlik tomiri o‘zlari har kuni ko‘rib yuradigan oddiy bir chayon o‘t (krapiva) tomiri edi. Mulozimlarning jahli chiqib, o‘n besh dirhamga ham olmaydigan shu tomirni besh yuz dirhamga berasanmi? – deb o‘shqiradilar. Shunda giyohfurosh javob beradi: “Dorivor moddalar nomini bilish bebaho boylkdir. Sizlar shu o‘simlikning nomini bilmaganliklaringiz tufayli kasalning qanchalar qiynalishiga sababchi bo‘ldilaringiz, tillo bahosiga bo‘lsa ham sotib olishga rozi edilaringiz”, – deydi.

Muallif lug‘atda muayyan so‘zning ma‘nosini izohlashda, antik o‘quv lug‘atlarida kuzatilgani kabi o‘zigacha bo‘lgan va zamondosh 65 ta shoir asarlaridan jami 141 ta she‘riy parcha, 250 dan ziyod yunon, rim, hind, arab olimlari, jumladan, Gippokrat, Arastu, Arxigen, Galen asarlaridan iqtiboslar keltiradi.

Asar arab alifbosidagi harflar sonidan kelib chiqib 29 bobga (alifbodagi 28 harfga lom-alifni qo‘shib 29 taga etkazadi) bo‘linadi. Ushbu boblarda jami 1116 ta lug‘at maqola keltiriladi. 4500 dan ortiq arabcha, yunoncha, suriyacha, forsha, xorazmiycha, sug‘dcha, turkcha va boshqa tillardagi o‘simlik, hayvon, minerallar va ulardan tayyorlanadigan dorivorlar nomi izohlanadi. Shu bilan birga asarda muallif o‘z davridagi dorivor atamalar, hayvon, o‘simlik nomlarining yozma shaklini me‘yorlashtirishga ham katta ahamiyat beradi.

Lug‘at arab leksikografiyasining o‘zigacha bo‘lgan an‘analaridan ancha farqlanadi. Muallif foydalanuvchilarga qulay bo‘lishi uchun dorivor moddalar nomini arab alifbosi tartibida

joylashtiradi. Bir harf bilan boshlanuvchi bir necha soʻz boʻlsa, ularni shu harf bobida ichki alfavit asosida beradi.

“Saydana”da muayyan soʻzning maʼnosini izohlashda, antik oʻquv lugʻatlarida kuzatilgani kabi 65 ta shoir asarlaridan jami 141 ta sheʼriy parcha, 250 dan ziyod asarlardan iqtiboslar keltiriladi. Shu bilan birga asarda muallif oʻz davridagi dorivor atamalar, hayvon, oʻsimlik nomlarining yozma shaklini meʼyorlashtirishga ham katta ahamiyat beradi.

Umuman olganda, asar: 1) muallifning olamning lisoniy manzarasini anglashga boʻlgan ishtiyoqi sababli yaratilgani; 2) soʻz maʼnolarini izohlash jarayonida xalq ogʻzaki ijodi namunalari, oʻzigacha boʻlgan va zamondosh olimlar, shoirlar asarlaridan parchalar keltirilgani; 3) oʻz davridagi dorivor atamalar, hayvon, oʻsimlik nomlarining yozma shakli meʼyorlarini belgilash vazifasini bajargani; 4) eng muhimi, muallif oʻzi koʻp bora taʼkilaganidek, soʻz maʼnosini izohlash, soʻzlikni joylashtirishda foydalanuvchilarga qulay boʻlishga katta ahamiyat berilgani; 5) bosh soʻz maʼnosini izohlash bilan birga uning morfologik tarkibi, maʼnoli qismlari, tuzilishi, grammatik shakli, turkumi bilan bogʻliq maʼlumotlar ham berib borilgani; 6) oʻz davrida tibbiyot sohasida bilim oluvchilar uchun qoʻllanma vazifasini bajargani bilan oʻquv leksikografiyasi talablariga javob bera oladi.

Oʻquv lugʻatlarining koʻpfunksiyaliligi, kompleks xarakteri uning lingvodidaktik maxsulot ekani, taʼlimiy vazifa bajarishi bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ham egaligidan dalolat beradi. Lingvodidaktikaning asosini til leksik qatlami birliklarining millat maʼnaviyati, madaniyati, urf-odatlarini, ijtimoiy va axloqiy meʼyorlarini ifodalash bilan bogʻliq qirralarini tadqiq etish va qoʻlga kiritilgan amaliy natijalarni zamonaviy oʻquv jarayonida tatbiq qilish orqali oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, vatanparvarlik va jamiyatning madaniy anʼanalariga hurmat ruhida tarbiyalash tashkil qiladi.

Oʻquv lugʻati taʼlimning zaruriy vositasi sifatida oʻzbek milliy madaniyatiga xos boʻlgan masʼuliyat, burch, vijdon, bagʻrikenglik, muhabbat, hamdardlik kabi axloqiy kategoriyalarni toʻplash, ommalashtirish vazifasini ham bajaradi. U xalqning avlodan-avlodga oʻtib kelayotgan qadriyatlarini, anʼanalari asosida yosh avlodni ota-ona, oila, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim vosita boʻlib xizmat qiluvchi maxsus psixologik muhitni taʼminlaydi. Masalan, frazeologik birlik xalq tarixining muayyan bir davrida leksikalizatsiyaga uchrab, til egalari tomonidan umumiy, tayyor til birligi sifatida oʻzlashtiriladi. Ularning tarixiy va etimologik tavsifi yosh foydalanuvchilar uchun murakkablikni keltirib chiqaradi. Oʻquv lugʻatining interaktiv xarakterga egaligi lugʻatda qamarab olingan har bir frazeologik birikmaning kelib chiqishi bilan bogʻliq murakkab va madaniy jihatdan ahamiyatli boʻlgan maʼlumotlarni yosh oʻquvchiga tushunarli taqdim etishni talab etadi [Porajëba, 2009]. Bu esa lugʻatshunos oldiga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan, lugʻatga qoʻshimcha savol, topshiriqlar, jonli nutq jarayoniga oid misollarni ilova qilish orqali maʼlumotni izohlash vazifasini qoʻyadi. Masalan, oʻzbek tilida mavjud “*aravani quruq olib qochmoq*” frazeologizmi tarkibidagi *arava* komponenti bugungi kunda tarixan eskirgan. Bola ibora maʼnosini toʻla tushinishi uchun “*Mashinani quruq olib qochmoq jumlasini hozirgi oʻzbek tilida qanday maʼno anglatadi?*”, “*Arava deganda nimani tushunasiz?*” kabi savollarni ilova qilish, ushbu birikmalar qoʻllangan bolalar adabiyoti namunalariidan misollar keltirish yoʻli bilan mohiyatga oydinlik kiritiladi.

“Oʻzbek tili iboralari oʻquv lugʻati”dan joy olgan frazeologik birikmalarning oʻzbek xalqi hayotiga oid milliy-madaniy semalarni aks ettirgan “doʻppi”, “toʻn”, “toʻy”, “tegirmon”, “etik”, “kavush” kabi tushunchalarni anglatuvchi leksemalar asosida shakllangani kuzatiladi:

DOʻPPISI TOR KELDI – ilojsiz, ogʻir ahvolga tushdi.

DOʻPPISINI OSMONGA OTDI – juda xursand boʻldi.

TOʻNINI TESKARI KIYIB OLDI – oʻchakishgan holda qaysarlik qildi.

TOʻYDAN ILGARI NOGʻORA QOQDI – roʻyobga chiqishi aniq boʻlmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirib yubordi.

TEGIRMONGA TUSHSA, BUTUN CHIQUADI – har qanday qiyin sharoitdan ham qutulish yo‘lini topa oldi.

IKKI OYOG‘INI BIR ETIKKA SUQDI – o‘z ishining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qildi.

KAVUSHINI TO‘G‘IRLAB QO‘YDI – haydab yubordi.

Shuningdek, lug‘atda *bir cho‘qishda qochiradi, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday, bir yostiqa bosh qo‘ydi, bir yoqadan bosh chiqardi, bu qulog‘dan kirib, u qulog‘idan chiqib ketadi, beti ochilib ketgan, besh barmog‘ini og‘ziga tiqdi, ko‘zining paxtasi chiqdi, puch yong‘oq bilan qo‘ynini to‘ldirdi* kabi o‘zbek xalqi turmush tarziga aloqador birliklar, *it (ichini it tirnadi), mushuk (mushugini “pisht” demaydi), tuya (ignadek gapni tuyadek qildi)* kabi zookomponentli iboralarning keltirilishi lug‘atning lingvomadaniy, lingvoma‘naviy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi [Mengliyev,2007:45].

L.K.Mullagaliyeva zamonaviy lingvokulturologiyada til “nomi” ostida madaniyatni o‘rgatish bosh maqsad qilib qo‘yilishiga diqqatni qaratadi. U til o‘rganishning lingvomadaniy konsepsiyasi o‘quvchilarning etnolingvomadaniy kompetensiyasining yaxshilanishi, bunda milliy-madaniy konsepsiyalar va pretsedent matnlar muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Olima rus tilini ona tili sifatida o‘qitish uchun xizmat qiluvchi darsliklarning aksariyatining konseptual asosini tilning tizimliliigi masalalari tashkil qilishi, darsliklarda milliy-madaniy tushunchalarni katta hajmda qamrab olish imkoni yo‘qligi, lug‘aviy birliklarning milliy-madaniy tarkibiy qismlarini tizimli va maqsadli ravishda semantizatsiyalashda lingvomadaniy o‘quv lug‘atlarining o‘rni muhim ekani, ular umummilliy, madaniy va lingvistik ma‘lumotlarni taqdim etishning asosiy vositasi hisoblanishini ta’kidlaydi [Муллагалиева,2002:26] .

Haqiqatdan ham, maktab ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan barcha vazifalarni amalga oshirishda faqat darslikka tayanib bo‘lmaydi. Darslik millat tili, madaniyati, ma‘naviyati, tarixiga doir barcha masalalarni to‘la qamrab olish imkoniyatiga emas. Bu esa darslikka yordamchi vositalar – turli maqsaddagi axborot manbalari, lug‘atlarga bo‘lgan talabni oshirmoqda. O‘quv lug‘atining har qanday turida milliy madaniyat, ma‘naviyat ifodasini ko‘rish mumkin, ammo o‘quv jarayoniga maksimal darajada moslashtirilgan sof lingvomadaniy xarakterdagi o‘quv lug‘atlar hali yaratilmagan.

Lingvodidaktika ona tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning til, madaniyat, ma‘naviyat fenomeni haqida to‘la tasavvur hosil qilishi bilan bog‘liq muhitni yaratishni maqsad qilib oladi. Lingvomadaniy o‘quv lug‘ati kompleks xarakterga ega bo‘lishi, turli xildagi filologik va entsiklopedik lug‘atlar, xususan, assotsiativ lug‘atlarga xos ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi, ya’ni til egalari nutqida aks etgan zamonaviy voqeliklarning barcha ko‘rinishlarini qamrab olishi, shu bilan birga imkon qadar ma‘lumotlarga boy va foydalanishga qulay bo‘lishi kerak. O‘quvchilarni milliy madaniyatimiz, ma‘naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand qilib tarbiyalash quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi:

1. Maktab “Ona tili” darsliklarining mazmunini qayta ko‘rib chiqish, uning asosida o‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uning o‘zbek madaniyati, umuman, dunyo sivilizatsiyasi madaniyati bilan tanishishini ta’minlashga doir maqsadlarni singdirish;

2. O‘quvchilarda nafaqat lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar, balki lingvomadaniy, lingvoma‘naviy, etnolingvistik kompetensiyalarni ham shakllantirish vazifasini amalga oshirish uchun darslikka yordamchi vosita – lingvomadaniy o‘quv lug‘atlarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

3. Ta’limning turli bo‘g‘inlarida tahsil oluvchilar uchun mo‘ljallangan o‘quv izohli lug‘atlar, o‘quv assotsiativ lug‘atlar, frazeologizmlar o‘quv lug‘ati, turli leksik qatlamlar – o‘zbek tili sinonimlari, antonimlari, paronimlari o‘quv lug‘ati, ko‘p ma’noli so‘zlar lug‘ati, shuningdek, olamning ilk milliy lisoniy manzarasi bilan tanishish yoshida bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan rangli, bezakli, o‘quv ensiklopediyalarni yaratish.

O‘zbek (ona) tili darslarida til leksik birliklar ma’nosini izohlash, semantizatsiyalashda til, madaniyat, ma’naviyat mushtarakligi nuqtayi nazaridan yondashuv asosida yaratilgan o‘quv lug‘atlaridan foydalanish o‘quvchilarni boy madaniy, ma’naviy merosimizdan bahramand bo‘lishi bo‘lishi va ularni yuksak vatanparvarlik, o‘zbek xalqining boy madaniy an‘analariga hurmat nuqtayi nazaridan tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quv leksikografiyasi sohasida olib borilgan izlanishlar o‘quv lug‘atlarining to‘liq o‘quv jarayoniga moslashishi, foydalanuvchining ta’limning qaysi bosqichida ekani, bilim darajasi, yoshi, ruhiy-fiziologik holatini hisobga olish bilan birga til egalarining turmush tarzi, milliy-madaniy qadriyatlar, ma’naviy olamiga aloqador muhim tushunchalarni ham aks ettirishini taqozo qilmoqda.[Nigmatova ,2020:71-80] Shuningdek, o‘quv lug‘atlari kompleksi yagona leksikografik tizimga birlashib, darajalanish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Ya’ni lug‘at material foydalanuvchi (adresat)ning ta’limning qaysi bosqichida ekani, bir bosqichidan ikkinchi bosqichga o‘tishda murakkablashib borishi va bunda didaktik prinsip yetakchilik qilishi lozim. Muhimi, har bir o‘quv lug‘ati keng qamrovli bo‘lib, kompleks ta’lim berish imkoniga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Воробьев В.В., Морозкина Е.А., Фаикулина Ф.Г. Триада язык-культура-личность, как основа современной лингвокультурологии. // Вестник Баш.ГУ, 2016, Т.21, № 2., S. 355-360; Айткулова Е.Р., Фаткуллина Ф.Г. Прецедентные феномены как элементы региональной идентичности // Вестник Баш.ГУ , 2016, Т. 21, №1. – S. 109-114.

2.Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов . М.: Филолф. Ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. – 245 с. – S.58.

3.Bahriddinova V.M. O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: tarixi, lingvistik asoslari va taraqqiyot tamoyillari: filologiya fanlari doktori (DSs) diss. – Toshkent, 2020. – 212 b.

4. Рогалева Е.И. Концепции интерактивного учебного словаря.Известия ВГПУ, 2009. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-kontseptsii-interaktivnogo-uchebnogo-slovarya/viewer>

5.Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M. O‘zbek tili iboralari o‘quv lug‘ati. Toshkent: YAngi asr avlodi, 2007. 45 b.

6.Муллагалиева Л.К. Учебный словарь “Реалии русской культуры” как основа формирования этнолингвокультурологической компетенции учащихся. Автореф. Канд.пед. наук.Уфа, 2002. 26

7.Нигматова Л.Х. Некоторые проблемы узбекской лексикографии и разработки словаря.// Журнал . Вопросы филологии. Ташкент .2020№ 1. S 71-80.

Nutqiy mavzularning belgilanishiga doir On determining speech topic

*Quronov Sa’dullo**

Annotation: *This article discusses modern language teaching methods, their practical application and existing problems. In particular, the problems of teaching the native language in our country are compared with foreign methods.*

Key words: *native language, speech topic, linguistic-grammatical topic, language competencies, qualification requirements.*

* filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, “Jajji akademik” jurnali bosh muharriri

127	Maktab ona tili ta'limida lug'at bilan ishlash <i>Mavlonova Klaraxon</i>	492
	Ona tili ta'limini takomillashtirish zarurati	
128	<i>Kuldasheva Sanobar</i>	505
	Multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari va afzalliklari	
129	<i>Abjalova Manzura Abdurashetovna</i> Lingvistik kompyuter dasturlari uchun ma'lumotlar bazasi va lingvistik protsessor	507
130	<i>Boxudova Citoraбону</i>	510
	Родственные языки и их особенности при обучении английскому языку	
131	<i>Sharipov Soh'ib</i>	513
	O'zbek tilining maktab o'quv lug'atlarida til va madaniyat yaxlitligi talqini masalasi	
132	<i>Quronov Sa'dullo</i>	518
	Nutqiy mavzularning belgilanishiga doir	
133	<i>Saydaxmedova Zeboxon</i>	520
	Ona tili o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasi	
134	<i>Toyirova Gulsanam</i>	523
	Til ta'limidagi muammolar va ularning yechimlari	
135	<i>Xakimova Nilufar</i>	525
	Ona tili darslarida o'qib tushunish malakasini rivojlantirish	
136	<i>Tursunov Shokirjon</i>	530
	Ona tili ta'limida og'zaki nutqni baholash masalasi	
137	<i>Yakubova Feruza</i>	533
	Erkin Vohidov she'riyatida ma'nodosh so'zlarning qo'llanishi	
138	<i>Abdurahmanova Sayyora Bozorboy qizi</i>	537
	O'zbek kompyuter lingvistikasi va avtomatik tahrir dasturini yaratish tamoyillari	

**«O'ZBEK TILI DUNYO MIQYOSIDA KENG TARG'IB QILISH
BO'YICHA HAMKORLIK MASALALARI »
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

Texnik muharrir: